Buxoro viloyati xalq ta’limi xodimlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish hududiy markazi

Maktabgacha, boshlang‘ich va maxsus ta’lim metodikalari kafedrasi

BOSHLANG‘ICH SING O‘QUVCHILARI MA’NAVIY TARBIYASIDA MATN TAHLILINING AHAMIYATI



BUXORO 2020

Ushbu metodik qo’llanma boshlang‘ich sinf o’quvchilarini o’qish va sinfdan tashqari o’qish darslarida matnni o’qish va uni tahlil qilishning samarali usullariga bag’ishlanadi. Qo’llanmada boshlang’ch sinf o‘quvchilarini ma’naviy tarbiyalashning zamonaviy usullari mashqlar orqali keltirilgan.

Tuzuvchilar: **Aslanova Nozima Xakimovna**
Narziyeva Mastura Sunnatovna

Taqrizchilar:
G.T.Yadgarova - Maktabgacha, boshlang‘ich va maxsus ta’lim metodikalari kafedrasi mudiri, Ps.f.n, dotsent

B.R.Adizov – BuxDU professori

Ushbu metodik qo’llanma Buxoro viloyati XTXQTMOHM ilmiy kengashining 2021 yil __ _____dagi ___-sonli qarori bilan nashrga tavsiya qilingan.

Kirish

Barchamizga ma’lumki, insonni boshqa jonzotlardan ustun sanalishiga asosiy sabab aql, ilm, tafakkur va nutqdir. Shuning uchun ham inson hayotning oliy xilqati sanaladi. Biroq inson o'z vazifalarini bekamu-ko‘st amalga oshirishi uchun ma’lum e’tiqodga ega bo‘lishi, o‘z umrining asl mohiyatni anglashi lozim bo‘ladi. Buning uchun esa insonga yaxshi ta’lim va ma’naviy tarbiya olish zarur sanaladi. Hurmatli Prezidentimiz o’z ma’ruzalarida “Hududlarga kitob yetkazib berish yaxshi. Lekin ularni o‘qish, o‘qitish yetarli darajada emas. Bolalarimizni bog‘cha yoshidan, boshlang‘ich sinflardan kichik-kichik kitoblarga o‘rgatish, shu orqali ularni kitobsevar etib ulg‘aytirish zarur. Shundagina jamiyatimizda kitobxonlik muhiti shakllanadi, boshqalar ham kitob o‘qishga qaytadi", - deya qayta-qayta ta’kidlaydi.

Xo’sh, ma’naviy tarbiya nima? Inson tarbiyasida ma’naviy tarbiya juda muhim. Ayniqsa, hozirgi shiddatli davrda insonning ma’naviy tarbiyasi juda ko‘p narsani belgilaydi. Ma’naviy tarbiyaning asosida qalb tozaligi yotadi. Shuning uchun ham yosh avlodga ma’naviy tarbiya zarur. Inson qaysi jamiyatda yashashidan, qaysi kasb bilan shug’ullanishidan qat’i nazar, u o’z insoniy burchi sifatida oilasini moddiy jihatdan to’kis etib ta’minlashi uchun dunyoviy ishlar bilan shug‘ullanishga majbur. Chunki, insonning moddiy ehtiyojlari doimiy ravishda o’sib boradi. Ota-bobolarimiz bolalarini halol-pokiza turmush kechirishlari uchun ularga yoshlikdan kasb va hunar sirlarini o’rgatish bilan birga ularga odob va tarbiya berishgan. Chunki insonning iymon va ma’naviyati mukammal bo‘lsa, u nopok yo’lga yurmaydi. Shu bilan birga topilgan mablag’ va molu dunyosi halol bo‘ladi. Birovning haqqiga xiyonat qilmaydi.

BOSHLANG‘ICH SING O‘QUVCHILARI MA’NAVIY TARBIYASIDA MATN TAHLILINING AHAMIYATI

Ma’naviy tarbiya insonga dunyo ishlarida muvozanatni saqlashni, halollikni, pokizalikni o‘rgatadi. Darhaqiqat, hamma zamonlarda yoshlarning ta’lim-tarbiyasi dolzarb masala bo‘lib kelgan. Bugun bizning davrimizda ham yoshlarimizga nihoyatda yuksak e’tibor bilan qaralmoqda. Yoshlarimizga o‘qish va mehnat qilish borasida hamma shart-sharoitlar muhayo qilingan. Endigi vazifamiz mana shu g‘amxo‘rliklarga munosib sa’y-harakatda bo‘lishdir. Ma’naviy sifatlarni yosh avlod ongiga bolalikdan singdirish zarur. Har bir pedagog ushbu vazifalarni amalga oshirishda o’z hissasini qo’shish uchun keng imkoniyatga ega. Bu jarayon xususan, maktabgacha va boshlang’ich ta’lim yoshidan boshlab oila va ta’lim muassasasi hamkorligida mukammal tarzda yo’lga qo’yilishi muhim ahamiyatga ega. Bu borada buyuk mutafakkirlarimiz ham o’zlarining pedagogik qarashlarida turli fikr va mulohazalarini bayon etganlar.

Shu o’rinda buyuk adib O’tkir Hoshimovning “Daftar hoshiyasidagi bitiklar” kitobidan bir iqtibos keltirishni lozim deb topdik.

Chegara

“Odamzod nima uchun kaftdek hovlisiga gul ekadi? Undan ko‘ra sholg‘om eksa, qozoniga tushadi-ku. Odamzod nima uchun bulbul chah-chahini eshitganda entikib ketadi? Undan ko‘ra bulbulni sho‘rvaga solib pishirsa, nafsini qondiradi-ku. Odamzod nima uchun osmonda charaqlab yotgan yulduzlarni ko‘rib, ko‘ngli zavqqa to‘ladi? Yulduzlar uning hamyonidagi tillalar emas-ku. Odamzod nima uchun kitob o‘qiyotib,

suyukli qahramoni o‘lib qolsa yig‘laydi? Uni yozuvchi “ichidan to‘qib chiqargani”ni biladi-ku? Odamzod nima uchun o‘zga yurtlarga borib behisob mol-dunyo orttirsa-yu, ittifoqo bolaligi kechgan kulbasi tushiga kirib qolsa, tuni bilan yig‘lab chiqadi? Axir u shohona qasrda yashaydi-ku. Odamzod nima uchun bolasining boshida alla aytadi? Go‘dak alla eshitmasa uxlamaydimi? Odamzod nima uchun nevarasini yetaklab necha zamon avval o‘tib ketgan bobosining qabrini ziyorat qiladi? Marhum uni ko‘rmaydi-ku?! Gap shundaki, Odamzodni hayvonotdan ajratib turadigan chegara bor. Bu chegaraning nomi “Ma’naviyat” deb ataladi”

Tarbiya mazmunida oldinga qo‘yilgan maqsad va vazifalarga muvofiq o‘quvchilar tomonidan o‘zlashtirilishi lozim bo‘lgan bilim, ko‘nikma va malakalar, shaxs xulq-atvori hamda sifatlari mohiyati aks etadi. Tarbiya mazmuni shaxsning shakllanishiga qo‘yiluvchi ijtimoiy talablar mohiyatidan iborat bo‘lib, ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot, kishilik munosabatlari mohiyati va darajasi, shuningdek, jamiyat mafkurasi g‘oyalari asosda belgilanadi.

Farobiy bilimidan ma’rifatli yetuk odamning obrazini tasvirlar ekan, bunday deydi: «Har kimki ilm hikmatni o’rganmagan desa, uni yoshligidan boshlasin, sog’ – salomatligi yaxshi bo’lsin, yaxshi ahloq va odobi bo’lsin, so’zining uddasidan chiqsin, yomon ishlardan saqlangan bo’lsin, barcha qonun – qoidalarni bilsin, bilimdan va notiq bo’lsin, ilmli va dono kishilarni hurmat qilsin, ilm va ahli ilmdan mol – dunyosini ayamasin, barcha real moddiy narsalar to’g’risida bilimga ega bo’lsin».

Bu fikrlardan **Forobiy**ning ta’lim – tarbiyada yoshlarni mukammal inson qilib tarbiyalashda xususan, aqliy – axloqiy tarbiyada alohida

e’tibor berganligi ko’rinib turibdi, uning fikricha, bilim, ma’rifat, albatta yaxshi axloq bilan bezatmog’i lozim, aks holda kutilgan maqsadga erishilmaydi, bola yetuk bo’lib yetishmaydi.

Ibn Sino bola tarbiyasi va tarbiya usullari haqida qimmatli fikrlarini bildirgan. **Ibn Sino** bolaning axloqiy tarbiyasi haqida bildirgan fikrlarida uy – ro’zg’or tutish masalalari xususida ham so’z yuritadi. Bolani tarbiyalash oila va ota – onaning asosiy maqsadi va vazifasidir. O’z kamchiliklarini tuzatishga qodir bo’lgan ota – ona tarbiyachi bo’lishi mumkin. Axloqiy tarbiyada eng muhim vositalar bolaning nafsoniyatiga, g’ururiga tegmagan holda, yakkama – yakka suhbatga bo’lish unga nasihat qilishdir.

Ibn Sino bolada axloqiy xususiyatlarni mehnat, jismoniy aqliy tarbiya bilan uzviy birlikda shakllantirishni, uni inson qilib kamol toptirishda asosiy omil, deb biladi.

Yusuf Xos Hojibning uqtirishicha, har bir kishi jamiyatga munosib bo’lib kamol topmog’i kerak. Buning uchun u tug’ilgan kundan boshlab zarur tarbiyani olmog’i lozim. U qobil qizning tarbiyasi haqida fikr yuritar ekan, ularning o’zlariga xos xususiyatiga e’tibor berishni ta’kidlaydi. Farzandlar tarbiyasi nihoyatda erta boshlanmog’i shart. Shundagina ularning noo’rin xatti – harakatlariga berilishining oldi olinadi.

Mirzo Ulug’bekning oila muhiti sog’lom avlodni yetishtirish haqidagi fikrlari shundan iboratki, alloma uqtirishicha, bolaning bilim olishiga bo’lgan qiziqish, havasini oshirishda u tarbiyalanayotgan muhit muhim o’rinni egallaydi. Oilada ota – onalar ayniqsa, o’qimishli ota – onalar o’z farzandlarining haqiqiy inson bo’lib kamol topishiga alohida e’tibor berishlari lozim.

Alisher Navoiy bolaning voyaga yetishida, kamol topishida tarbiyaning kuchi va qudratiga alohida e’tibor beradi. Tarbiya natijasida bolaning foydali va yetuk kishi bo’lib o’sishiga ishonadi. Yosh bolaning juda kichik yoshidan boshlab tarbiyalamoq zarur. Tarbiya insonga o’zida yaxshi odat va fazilatlar hosil qilishga yordam beradi. U odam shaxsi kishilar bilan munosabatda, ayniqsa, kishilarning bir – birlariga bo’lgan ruhiy ma’naviy ta’sirlari natijasida tarkib topadi, deb voyaga yetkazishda asosiy omillardan biri tarbiya ekanligini uqtiradi.

Voiz Al – Koshifiyning uqtirishicha, insonni ta’lim – tarbiya orqali qayta tarbiyalash aqliy qobilyatni o’stirish mumkin. Koshifiy o’zining pedagogik qarashlaricha, bolalarda mustaqil fikrlash qobiliyatini o’stirish masalasiga alohida e’tibor beradi. Ota – onalar muallimlardan bu masalaga alohida ahamiyat berishni talab etadi. Bu masalada oilaviy hamda tashqi muhit muhim o’rin tutadi. Bola to’g’ri so’zli, va’daga vafodor, yaxshi xulqli qilib tarbyalanishi kerak.

Jaloliddin Davoniy ota – onaning bolani tarbiyalashdagi ahamiyatiga keng to’xtalgandi. Uning fikricha oila tarbiyasida ota ham, ona ham teng huquqli, teng ishtirok etishi bolaning yaxshi xulq – odob qoidalarini muayyan bir kasbni egallashiga ko’maklashishi ilm – fan va kasb – hunar egallashining moddiy asosi bo’lmishoziq – ovqat, kiyim – kechak, kerakli buyum va jixozlarni yetkazib berish uchun jozibalik ko’rsatishi kerak.

Sharq mumtoz adabiyotining buyuk namoyondalaridan biri **Muslixiddin Sadi Sheroziy** Sheroz shaxrida 1184 yilda tug’ildi. Sa’diyning fikricha, oila, bolaning baxti, kelajagi uchun zamin yaratuvchidir. Oilada asosiy

tayanch otadir. U ma’suliyatli tarbiyachidir. Ota o’z bolalarini tarbiyalashi, o’qitishi, hunarga o’rgatishi, jismonan chiniqtirishi kerak.

Sa’diyning pedagogik qarashlaricha, bola qobiliyatli va kam qobiliyatli bo’lishi mumkin. Qobiliyat o’z – o’zidan rivojlanmaydi. Uning rivojlanishi uchun bolani tarbiyalash kerak, tarbiya bo’lmasa, boladagi qobiliyat so’nadi, tarbiyani uch asosiy – aqliy, nafosat va jismoniy mehnat tarbiyasiga bo’ladi. Adib bolani tarbiyalash vazifasini ularning ota – onalariga, ya’ni oilaviy tarbiyaga katta e’tibor beradi.

XIX asr o’zbek ijtimoiy va adabiy hayotning yirik vakillaridan biri **Komil Xorazimiy** o’z asarlarida ma’rifat, axloqiy kamolot, vatanparvarlik g’oyalarini olg’a surdi. U ilm-ma’rifatning xalq, jamiyat farovonligiga, insonning axloq kamolotida tutgan o’rni, axloqiy va nafosat tarbiyasini uzviy birligi haqidagi pedagogik fikrlarini ham bayon etadi.

Komil Xorazimiyning fikricha ilm-hunar, ilm-ma’rifat inson axloqiy kamoloti, ijtimoiy ma’naviy hayotning rivoji uchun xizmat qilishi kerak. Kamtarlik eskirmaydigan, eng go’zal insoniy fazilatdir. Bu fazilatlarga ega bo’lganlar obro’-e’tiborli komil insonlardir. Kamtarlik insonni turli noxushlikdan xijolatdan saqlaydi. Badiiy asar mutolaasi o’quvchida yaxshilik va yomonlik, go’zallik va xunuklikning hayotdagi aksi haqida ma’lumotlarga ega bo’lishiga yordam beradi.

Shoir tarixshunos, tarjimon va xattot **Munis Xorazmiy** tilga ko’p erk bermaslikni maslahat beradi. Shoir yomon so’zli, ozor beruvchi murodlar sifatini tasvirlab, kishilarni jumladan yoshlarni ular bilan hamsuhbat bo’lmaslikka undaydi. Munis Xorazmiy o’z asarlarida xalqni adolatli, ongli, bilimli bo’lishga, jaholatdan yiroq turishga da’vat etadi,

uning fikiricha, adolat - sharaf ko’rki, osoyishtali, xushnudlikdir. U yoshlarni kamtarlik bilan muloqotda bo’lishga, ularni hurmat qilib e’zozlashga chorlaydi.

Munis Xorazmiyning asarlariga bayon etilgan ta’lim – tarbiyaga oid fikrlar faqat u yashagan davr uchun emas, balki hozirgi davr uchun ham qimmatlidir.

Mohlar oyim **Nodira**ning inson va tabiatiga nisbatan qarashlariga faqat shaxsiy tuyg’u emas, balki yoshlar tarbiyasida milliy an’analarning roli haqidagi fikrlari ham namoyondir. Nodiraning tarbiya haqidagi qarashlarida insonparvarlik g’oyalari - adolat, insof, xalq manfaati muhim o’rinni egallaydi. Nodira hayotning tub mohiyatini yaxshilik binosini barpo etishdan iborat deb biladi. Uning fikricha, kimki tiriklik chog’ida yaxshilik bunyod etgan bo’ladi, o’zining bu ezgu ishlari bilan o’zidan keyin hayotda yorqin xotira qoldiradi. Umuman, Nodira o’z she’rlarida barkamol insonni ulug’laydi. Ta’lim – tarbiyaga oid ko’p foydali o’gitlarni bayon etdi.

Ma’naviy tarbiyani bola shaxsining tez rivojlanadigan davri – o‘quvchilik yillarida uning ongiga turli faoliyat (o‘qish, mehnat, ijtimoiy ishlar, o‘yin, sport, badiiy havaskorlik) yordami bilan maxsus ta’sir etish muhimdir. Aks holda xulq me’yorlari, axloq talablarini yaxshi tushunmay qolishi natijasida shaxs ijtimoiy munosabatlarda beqaror, tasodifiy ta’sirga beriluvchan bo‘lib qolishi mumkin. Tarbiya yaxlit jarayonda amalga oshirilib, uning tarkibiy qismlari ayni bir vaqtda, faoliyatning biror turi asosida namoyon bo‘ladi. Xususan, boshlang’ich sinf o’qish darslarida o’quvchilar badiiy asar mutolaasi va matni ustida ishlash orqali o’zlariga hayotiy saboqlarni oladilar. O‘quvchilar milliy va jahon

adabiyotlarini o‘qib, tahlil qilish asosida ezgulik va yovuzlik, yaxshilik va yomonlik, go‘zallik va xunuklik haqidagi xilma-xil talqinlarga duch kelishadi. Ularga ongli munosabat bildirish hamda o‘zlaridagi axloqiy-ma’naviy fazilatlarning shakllanishi va rivojlanishiga zamin yaratadi. Mutolaa o‘quvchilarning og‘zaki hamda yozma nutqlari rivojlanadi. Bolaning matn mazmunini to‘liq o‘qib olishi qayta hikoyalashi, shuningdek, o‘zgalar nutqini eshitib, tushunib olishi malakalari hosil qilinadi.

Badiiy asar matni tahlili jarayonida o’quvchilar asar qahramonlarining hatti harakatlarini tahlil qilib, ularning qilmishlarining to’g’ri yoki noto’g’riligini anglaydilar, shu bilan birga asardagi voqealardan ta’sirlanadilar. Buning uchun o’qish va sinfdan tashqari o’qish darslarini interfaol, qiziqarli, sifatli va munozaralarga boy tarzda tashkil etish talab etiladi. O‘quvchi badiiy asarning mazmuni bilan uni mutolaa qilish paytida tanishsa, tahlil qilishda uning poetik vositalariga murojaat qiladi. Mutolaa badiiy asardan ta’sirlanishga yordam berib, uning tafakkurini peshlasa, tahlil asar zamiridagi ma’noni chuqurroq anglash va o‘rganishga yordam beradi.



O’qish faoliyatida o‘qituvchi badiiy asar ustida ishlash jarayonining quyidagi masalalarini hal qilishi muhimdir. Bular asar ustida ishlashning maqsad va mazmunini aniqlab olishdan boshlanadi. Sinfda o’quvchilarning ruhiy holati, sinf o’quvchilari orasidagi holat va vaziyatlardan kelib chiqqan holatda asar ustida ishlashning mazmuni belgilanadi. Keyingi vazifa asarni tahlil qilish uchun dars bosqichlarini belgilab olish vazifasidir. Bu vazifa o’qituvchining dars jarayoniga metodik tayyorgarligi, dars jarayonini qanday metodlar asosida tashkil etishi va boshqarishiga bog’liq bo’ladi. Bunda o’qituvchi badiiy asar ustida ishlashda har bir asar tahlili uchun topshiriqlar tizimini ishlab chiqishi muhim o’rin tutadi.

Keyingi masala o‘quvchilar egallaydigan bilim, ko‘nikma va malakalar doirasini belgilab olish vazifasidir. Bunda badiiy asar ustida ishlash jarayonida o’quvchilarning tafakkuri, o’z fikrini nutqida bayon qila olishi, badiiy asar ustida ishlashning qaysi bosqichida bo’lmasin o’zini namoyon eta oishiga e’tibor qaratadi.

Boshlang‘ich sinflarda badiiy asar ustida ishlash uch asosiy bosqichga bo‘linadi:



1.Birinchi sintez bosqichi. Bu bosqichning asosiy vazifasi matnni yaxlit idrok etish asosida asarning aniq mazmuni va tasviriy ifoda vositalari bilan tanishtirishdan iborat. Bunda avvalambor asarni yaxlit holatda o’quvchilar e’tiboriga havola qilish maqsadida o’qituvchi

o’ziga qulay bo’lgan usulni tanlaydi. Masalan, o’qituvchi hikoyasi, asar matnining audio shakli, film namoyishi, asarning bir necha o’quvchilar tomonidan rollarga bo’linib o’qilishi va hokazo. Bunda ish turi badiiy asarning xususiyatlari va qaysi sinfda o’qitilishiga mos ravishda tanlanadi. Bu bosqichni boshlashda o’qituvchi asar muallifi haqida ham ma’lumot berishi lozim.

2. **Analiz bosqichi.** Bu bosqichning vazifasi badiiy asarda voqealar rivojining bog‘lanishini aniqlash, ishtirok etuvchi shaxslarning xulq-atvori (O’zini qanday tutdi? Nima uchun bunday qildi?) va ularning asosiy xususiyatlarini ochib berish (qahramonlarning ijobiy va salbiy xususiyatlariga e’tibor qaratiladi), asar kompozitsiyasini ochish (tugun, kulminatsion nuqta, yechim), asarning aniq mazmunini tasviriy vositalar bilan birga tahlil qilish ya’ni, badiiy asarda tasvirlanayotgan narsani jonli tasvirlash, his-tuyg`u va kechinmalarni yorqin ifodalashga xizmat qiluvchi badiiy tasvir va ifoda vositalari, obrazlilik (tasviriylik) va emotsionallikni kuchaytiruvchi elementlarga e’tibor qaratish va qahramonlar xulq-atvorini baholash (muallif nimani tasvirlagani, qanday tasvirlagani, nima uchun u yoki bu dalilni tanlagani)dan iborat.

Birinchi sintezdan so‘ng o‘qilgan asarga bog‘liq holda ijodiy xarakterdagi ishlar o‘tkaziladi. Masalan: **“Ekspertlar guruhi”** amaliy ishini taklif qilamiz. Bu usul quyidagi tartibda tashkil etilishi mumkin.

Badiiy asarni analiz qilish uchun o’quvchilar asar qahramonlari sonidan kelib chiqib bir necha kichik guruhlarga bo’linadilar. Masalan: 4-sinf O’qish kitobida keltirilgan **“Eng ulug’ fazilat”**

ertagini **“Ekspertlar guruhi”** usulidan foydalanib analiz qilish quyidagi tartibda amalga oshirilishi mumkin

Avval ertak matni birinchi sintez bosqichi asosida o’quvchilar e’tiboriga havola etiladi, ya’ni ertak matni boshidan oxirigacha mutolaa qilinadi.

ENG ULUG’ FAZILAT

Qadim zamonda bir mo’tabar odamning uch o’g’li bor edi. Bir kuni ularni huzuriga chaqirib, shunday debdi:

- *O’g’illarim, sizlarni sinamoqchiman, bir oy sayohat qiling. Shu bir oylik umringizni xalqqa foydali, yaxshi ishlarga sarf eting. Qaysi biringizning qilgan yaxshiligingiz eng ulug‘ fazilat kasb etsa, barmog‘imdagi mana shu juda qimmatbaho uzukni unga beraman.*

O‘g‘illari har tarafga tarqalib, sayohatga chiqib ketibdilar. Bir oy sayohat qilib yurib, yana otalarining huzuriga qaytib kelibdilar. Ota katta o‘g‘lidan so‘rabdi:

– O‘g‘lim, shu bir oy ichida qanday eng ulug‘ fazilatli ish qilding?

– Otajon, bir kuni tanho o‘zim bir bog‘ ko‘chasidan o‘tib ketayotsam, bir yerda juda ham qimmatli olmos tushib yotgan ekan. Uni olib darhol tegishli ma’murlarga topshirdim. Ma’murlar boshlig‘i menga tashakkur aytdi. Qo‘limga mana shu taqdirnomani yozib berdi. Olmosning egasini toptirib, unga topshirdi. Shu qilgan ishim to‘g‘riligimga bir dalil. Shu harakatim eng ulug‘ fazilat emasmi?

– Juda to‘g‘ri ish qilgansan, o‘g‘lim! Vijdonan vazifangni ado etgansan. Lekin u olmos sening xususiy mulking emas-ku!

Keyin o‘rtancha o‘g‘li so‘zga kirishdi:

– Men bir kuni katta bir ariq yoqasidan ketib borardim. Shu choqda bir yosh bola suvga tushib ketdi. Halok bo‘lish xavfi ostida ekanini ko‘rib qoldim. Darhol o‘zimni suvga tashladim. Ko‘p mashaqqat chekib, bolani suvdan olib chiqdim. Uni halokatdan qutqazib, ota-onasiga eson-omon topshirdim. Ota-onasi mendan ko‘p minnatdor bo‘lib, haqimga duo qildilar. Hayotim qo‘rqinch ostida qolsa ham yosh bolani halokatdan qutqazish uchun qilgan shu harakatim bilan mukofotingizga loyiq bo‘lsam kerak, deb o‘ylayman.

Otasi o‘rtancha o‘g‘lining qo‘lini ushlab, shunday dedi:

– Ofarin, o‘g‘lim. Seni tabriklayman, faqat shu go‘zal ishing tufayli qalbing zavq-shavq bilan to‘lganini his etgansan. Shuning o‘zi mukofot emasmi?

Keyin kichik o‘g‘li otasiga ta’zim qilib aytdi:

– Otajon, menga doimo dushmanlik nazari bilan boqib, zarar yetkazib yurgan bir odam bor. Men unga hech bir yomonlik qilmagan bo‘lsam ham, u payimda yuradi. Hatto meni yo‘q qilish uchun fursat kutadi. Kecha u dushmanimning bir jar yoqasida uxlab yotganini ko‘rdim. Agar uyqusirab, bir yondan ikkinchi yonga ag‘darilsa yoki qattiqroq tovush chiqarib uyg‘otilsa, turishga harakat qilib, jarga qulab tushishi mumkin edi. Men tovush chiqarmasdan, sekingina yurib uning yoniga bordim. Juda ehtiyotkorlik bilan uni ushlab, asta-sekin o‘z tomonimga torta boshladim. Ancha beriga kelib xavf-xatardan qutulgandan keyin ruhim ko‘tarildi, shodlanib yo‘limda davom etdim. Otasi o‘g‘lining bu yaxshi

ishidan, oliyjanobligidan shodlanib ko‘ziga yosh oldi. Uni quchoqlab, yuz-ko‘zidan o‘pib dedi:

– Bor bo‘l, o‘g‘lim! Yasha, umring uzoq bo‘lsin! Mukofotimni olishga sen haqlisan, chunki dunyoda eng ulug‘ fazilat – yomonlikka yaxshilik qilishdir, – deb qimmatli uzugini o‘g‘lining barmog‘iga taqdi, uning haqiga duo qildi.

Ertak o’quvchilar e’tiboriga havola etilgach, ertak qahramonlari nomi yozilgan kartochkalar ekspertlar guruhi a’zolariga tarqatiladi.

Masalan: **OTA, TO’NG’ICH O’G’IL, MA’MUR, O’RTANCHA O’G’IL, CHO’KAYOTGAN QIZCHA, QIZCHANING OTASI, ONASI, KENJA O’G’IL, 3-O’G’ILNING DUSHMANI**

Har bir guruh a’zosi, ya’ni ekspertlarga bittadan qog’oz (blank) beriladi. Blankning eng yuqori qismida qahramonning nomi yoziladi. Ular ertak matnidan o’ziga tegishli qahramon yo’nalishida ma’lumotlar to’plash va qayd etishga harakat qilishi kerak. Bu ma’lumotlar og’zaki va yozma shaklda to’planishi mumkin.

Masalan:

OTA

- *mo’tabar odam*
- *3 o’g’li bor*
- *O’g’illarini sinamoqchi bo’ldi*
- *Eng ulug’ fazilatli o’g’lini aniqlamoqchi bo’ldi*
- *O’g’illarini bir oy sayohat qilishga yubordi*

- *O’g’illarining bir oylik umrini xalqqa foydali, yaxshi ishlarga sarf etishlarini so’radi*
- *Katta o’g’liga olmos uning xususiy mulki emasligini aytdi*
- *O’rtancha o’g’liga ofarin aytib, uni tabrikladi. Qizchaning ota-onasining minnatdorchiligining o’zi ham mukofot ekanligini aytdi…*

Qahramonlar to’g’risida eng ko’p ma’lumot to’plagan o’quvchilar rag’batlantiriladi.

3. **Ikkinchi sintez bosqichi**. Bu bosqichda badiiy asar ishtirokchilarining muhim xususiyatlari umumlashtiriladi, qahramonlar taqqoslanadi va baholanadi. Shu bilan birga asarning g‘oyasi aniqladi, badiiy asarning hayotiy manbalari va san’at asari sifatida baholash ko’nikmalari shakllantiriladi. Bunda o’quvchilarga quyidagi ko’rinishdagi savollar bilan murojaat qilish mumkin.

- Qanday ma’lumotlarga ega bo‘ldik?
- Asar nimaga o‘rgatadi?
- Muallif o‘z fikri va taassurotlarini qanday qilib aniq, ravshan va ta’sirli tarzda yetkazgan?

Asar maqsadga muvofiq tahlil qilinsa, o‘quvchilar faolligi ortadi, chunki asarni tahlil qilish ijodiy jarayon sifatida o’quvchilarni firlashga undaydi.



Badiiy asarni o‘qishga tayyorgarlik. Asarni o‘qishga kirishishdan oldin o‘quvchilarni badiiy asarni o‘qishga tayyorlash lozim bo‘ladi. Chunki o‘quvchilar asar mazmunini to‘g‘ri idrok etishlari uchun hayot haqida ma’lum tasavvurga ega bo‘lishlari zarur. Buning uchun tayyorgarlik ishlari o‘tkaziladi.

Ma’lumki, sinfda o‘qish asosida badiiy va ilmiy-ommabop matnlar turadi. O‘quvchilarni matn bilan tanishtirish o‘qishga tayyorgarlik bosqichidan boshlanadi. Tayyorgarlik bosqichi yozuvchilar haqida ma’lumot berish, o‘quvchilarni asarda tasvirlanadigan voqea-hodisalarni idrok qilish, asar pafosini his etish, notanish va ko‘p ma’noli so‘zlar, murakkabroq tarzdagi obrazli ifodalarni izohlash kabi masalalarni o‘z ichiga oladi. Agar asar yil fasllari haqida bo‘lsa, tabiat qo‘yniga sayohat uyushtirish ham sinfda o‘qish muvaffaqiyatini ta’minlashga xizmat qiladi.

Matn bilan dastlabki tanishuvdan so‘ng quyidagicha savollar bilan murojaat qilish darsda o‘quvchilarning faolligini oshiradi:

1. Hikoyadagi qaysi epizodni qiziqarli deb o‘ylaysiz?
2. Hikoya qahramonlaridan qaysi birining xatti-harakatini ma’qullaysiz? Qaysi birining fe’l-atvori, o‘zini tutishi sizga yoqmadi?
3. Hayotda shunday kishilarni uchratganmisiz?

Tayyorgarlik ishlarining vazifalari quyidagilar:

1. O‘quvchilarning asarda aks ettirilgan voqea-hodisalar haqidagi tasavvurlarini boyitish, matnni ongli idrok qilishga ta’sir etadigan yangi ma’lumotlar berish, badiiy asarda tasvirlangan dalillarni o‘quvchilarning o‘z hayotida kuzatganlari bilan bog‘lay olishlariga sharoit yaratish.

2. Yozuvchining hayoti va ijodiga qiziqish uyg‘otish.

3. O‘quvchilarni asarni hissiy idrok etishga tayyorlash.

4. Asar mazmunini tushunishga xalal beradigan so‘zlarning lug‘aviy ma’nolarini tushuntirish.

Matn qo‘llanishiga ko‘ra dialogik va monologik matn turlariga bo‘linadi. Dialog so‘zlovchi va tinglovchi orasidagi fikr almashish jarayoni bo‘lib, o‘zaro savol-javoblardan iborat bo‘ladi. Dialogik matn tarkibida so‘roq olmoshlari, muomala odobiga oid so‘z va iboralar, yuklamalar, undovlar, kirish so‘zlar keng qo‘llaniladi.

1-mashq.

Berilgan dialoglarni o‘qing. Suhbat jarayonida ishlatiladigan muomala odobiga oid so‘zlar va his-hayajonni ifodalovchi vositalarni ko‘rsating.

1. – Eh, Zokirjon, bahor tarovatini ko’ryapsizmi? Xo‘sh, qalay, zo’rmi?
   – Ha, ajoyib.
   – Tabiat qo’yniga chiqamiz bo‘lmasa.
   – Albatta.

2. – Hormanglar! – dedi Aziz olma terayotgan o’rtoqlariga qarab.
   – Bor bo‘ling!
   – Qalay, charchamayapsizlarmi?
   – Hosil mo‘l bo‘lsa, hech kim charchamaydi.
   – Xirmonga baraka.
   – Rahmat.

3-topshiriq. Matnni o‘qing va savollar tuzing.

Kim bo’lsam ekan?

Ustozimiz « **Kim bo’lsam ekan**?» mavzusida insho yozib kelishni topshirdilar. Insho yozish uchun ancha yillardan buyon orzu qilib yurgan kasbim haqida yana qayta-qayta o‘yladim. O‘qituvchi, tarbiyachi, shifokor, haydovchi, oshpaz…Bularning oxiri ko‘rinmaydi. Shu kasb egalari o‘z kasblarida xizmat qilib kelmoqdalar va bir-birlariga yordam beradilar. Menimcha, har bir inson o‘zi orzu qilgan, yaxshi ko‘rgan kasbini egallasa, yurtimizning gullab yashnashiga o‘z hissalarini qo‘shadilar. Oldimda xilma-xil kasblar, ularning birini tanlash juda qiyin. Go‘yo oldimda xazina, xazinada esa turli-tuman qimmatbaho toshlar. Bu toshlarning bittasini tanlash kerak. Buning uchun inson avvalambor halol mehnat qilishi kerak.

Topshiriq. Matn mazmuni asosida partadoshingiz bilan dialog tuzing.

Maqsadiga muvofiq matnlar bir necha turlarga bo’linadi.

H I K O Y A M A T N I

Matnning bu turi asosan so’zlashuv va badiiy asarlarda qo’llaniladi.

Afrika qabilalaridan birida jinoyat qilgan odamni sazoyi qilish, qamab qo’yish, qatl etish degan gaplar yo’q ekan. Tanho o’zini qabiladan haydab yuborisharkan, xolos… Aslida, odam uchun yolg’izlik eng oliy jazodir. (O’tkir Hoshimov)

T A S V I R I Y M A T N

O’zaro so’zlashuvlar, badiiy asarlar va nutqning boshqa shakllarida qo’llaniladi.

Temurbek qaddi-qomati raso, baland bo'yli, keng peshonali, qoshlari quyuq, ko'zlari katta-katta bir yigit edi. Ko'z qarashi mayin, muloyim bo'lib, kuchli, o'ktam ovoz bilan gapirar, shoshilmas, ovozida kishini o'ziga tortuvchi qandaydir joziba sehr yashiringandi. Qur`on tushirganda, ovozi nomdor qorilarniki singari shirali va yoqimli eshitilardi. (Muhammad Ali)

M U H O K A M A M A T N I

Ba'zi nutq shakllarida qo'llaniladi

Dunyoda shunday hunarlar borki, birining xatosini ikkinchisi tuzatishi mumkin. Paxsakash xatosini suvoqchi, suvoqchi xatosini bo'yoqchi; to'quvchi aybini bichiqchi, bichiqchi aybini tikuvchi "yopib yuborsa" yuborar… Dunyoda shunday hunarlar borki, xatosini hech kim tuzata olmaydi. Bular – shifokor va huquqshunos. Ular inson hayotini, inson qimmatini hal qiladi. (O'tkir Hoshimov)

Matn turini aniqlang va tavsiflashga harakat qiling

"Oldingdan oqqan suvning qadri yo'q" deydilar. Chindan ham shunday. Oldimizdan oqqan suvni uvol qilsak – chidaydi. Qo'limizni yuvsak – chidaydi. Betimizni chaysak – chidaydi. Boringki, oyog'imizni yuvsak ham chidaydi. Ammo… oldimizdan oqqan suvga tupursak, cho'p tiqib loyqalatsak, boshidan mag'zava ag'darsak… Oldimizdan oqqan suvning gunohi nima o'zi?!

(O'tkir Hoshimov)

RASM ASOSIDA TASVIRIY MATN TUZING VA UNDA MUHOKAMA MATNI HAM ISHTIROK ETSIN

BO’G’IRSOQ

Qadim o`tgan zamonda chol bilan kampir yashagan ekan. Bir kuni chol kampiriga qarab:

– Menga bo’g’irsoq pishirib ber, – debdi.

– Unimiz yo’q-ku. Bo’g’irsoqni nimadan pishirib beraman? – debdi kampir.

– Suprani qoqib-sidirsang, bo’g’irsoqqa yetadigan un yig’ilib qoladi, – debdi kampiriga chol.

Kampir suprani qoqib-sidirib bo’g’irsoqqa yetadigan un yig’ib olibdi. Kampir unni qaymoqqa qoribdi, zuvala yasab bo’g’irsoq qilibdi va pechga joylabdi.

Bo’g’irsoq qizarib ,chiroyli bo’lib pishibdi. Kampir uni pechdan olib, sovitish uchun deraza oldiga qo’yibdi.

Yotaverib-yotaverib zerikkan bo’g’irsoq asta dumalab derazadan so’riga, so’ridan yerga tushib, eshik oldiga kelib qolibdi. Eshikdan dahlizga, dahlizdan pillapoyaga, pillapoyadan hovliga, hovlidan saroyga, saroydan tashqariga chiqib yo’lga ravona bo’libdi. Bo’g’irsoq yo’lda dumalab ketayotib, bir quyonni uchratib qolibdi:

Hooy bo’g’irsoq, bo’g’irsoq! Men seni yeyman, – debdi quyon.

– Meni yema, quyonvoy, men senga qo’shiq aytib beraman, – debdi bo’g’irsoq va qo’shiq ayta boshlabdi:

– Men bo’g’irsoq, bo’g’irsoq, supradagi un-urvoq.

Sidirishib oldilar, qaymoqqa xo’p qordilar.

Pishdim pechda, tovada, sovitdilar havoda.

Qochib ketdim bobomdan, qochib ketdim buvimdan.

Eshit, quyon, bo'ldi bas, sendan qochish hech gapmas.

Bo'g'irsoq qo'shig'ini tugatishi bilan yana dumalab yo'lga tushibdi. Quyon esa nima bo`lganini tushunolmay qolaveribdi.

Bo'g'irsoq yumalayveribdi yumalayveribdi. Bir payt qarshisidan bo'ri chiqib qolibdi.

Bo'g'irsoq, bo'g'irsoq, men seni yeyman, – debdi bo'ri.

– Meni yema, bo'rijon, senga qo'shiq aytib beraman, – debdi va qo'shig`ini ayta boshlabdi:

– Men bo'g'irsoq, bo'g'irsoq, supradagi un-urvoq.

Sidirishib oldilar, qaymoqqa xo'p qordilar.

Pishdim pechda, tovada, sovitdilar havoda.

Qochib ketdim bobomdan, qochib ketdim buvimdan.

Qochib ketdim quyondan.

Eshit, bo'ri, bo'ldi bas, sendan qochish hech gapmas!

Bo'g'irsoq dumalashda davom etib, bir pasda bo'ridan uzoqlashib ketibdi.

Yo`lida ketayotsa oldidan ayiq chiqib qolibdi.

Bo'g'risoq, bo'g'irsoq men seni yeyman, – debdi ayiq.

– Maymoqvoy, meni yeyishga senga yo'l bo'lsin, – debdi bo'g'irsoq va o'z qo'shig'ini ayta boshlabdi:

– Men bo'g'irsoq, bo'g'irsoq, supradagi un-urvoq.

Sidirishib oldilar, qaymoq qo`shib qordilar.

Pishdim pechda, tovada, sovitdilar havoda.

Qochib ketdim bobomdan, qochib ketdim buvimdan.

Qochib ketdim quyondan, qochib ketdim bo'ridan.

Eshit. ayiq, bo’ldi bas, sendan qochish hech gapmas.

U shunday kuylaganicha dumalab ketaveribdi. Ayiq bo’lsa, og’zini ochgancha anqayib qolibdi. Bo’g’irsoq dumalab ketaveribdi, ketaveribdi, shu payt oldidan tulki chiqib qolibdi.

Salom, bo’g’irsoq, – debdi tulki. – Namuncha dum-dumaloq, qizarib pishgan bo’lmasang? Shu paytta qayoqqa dumalab ketyapsan?

Bo’g’irsoq tulkining maqtovlariga uchib, dumalashdan to’xtabdi va qo’shiq ayta boshlabdi:

– Men bo’g’irsoq, bo’g’irsoq, supradagi un-urvoq.

Sidirishib oldilar, qaymoqqa xo’p qordilar.

Pishdim pechda, tovada, sovitdilar havoda.

Qochib ketdim bobomdan, qochib ketdim buvimdan.

Qochib ketdim quyondan, qochib ketdim bo’ridan.

Qochib ketdim ayiqdan.

Eshit, tulki, bo’ldi bas, sendan qochish hech gapmas.

Bo’g’irsoq yana dumalay boshlagan ekan, tulki unga shunday debdi:

– Qo’shig’ing buncha yoqimli bo’lmasa! Qarilik qursin, qulog’im yaxshi eshitmaydi, Sendan iltimos, shu qo’shig’ingni burnimga chiqib yana bir marta aytib bersang degandim. Eshitib bir maza qilay. Faqat qattiqroq ayt.

Bo’g’irsoq tulkining burniga chiqib kuylay boshlabdi:

– Men bo’g’irsoq, bo’g’irsoq, supradagi un-urvoq.

Sidirishib oldilar, qaymoqqa xo’p qordilar.

Pishdim pechda, tovada, sovitdilar havoda.

Qochib ketdim bobomdan, qochib ketdim buvimdan.

Qochib ketdim quyondan, qochib ketdim bo’ridan.

Qochib ketdim ayiqdan.

Eshit, tulki, bo’ldi bas, sendan qochish hech gapmas.

– Rahmat, bo’g’irsoq, – debdi tulki unga. – Qo’shig’ing haqiqatan ham ajoyib. Qani edi uni yana bir marta eshitsam. Tilimga tushgin-da uni menga so’nggi marta aytib ber.

Bo’g’irsoq tulkining og’ziga sakrab tushibdi, tulki bo’lsa bo’g’irsoqni «xap» etib yeb qo’yibdi!

TOPSHIRIQ

1. **Bog’irsoq pishirishda asosiy maxsulot nima ekan?**
2. **Un maxsulotidan yana nimalar tayyorlanadi?**
3. **Bo’g’irsoq pishirish jarayonida ishtirok etganmisiz?**
4. **Bo’g’irsoq ertagining bosh mavzusi nima?**
5. **Ertakda qaysi xususiyatlar haqida fikr yuritiladi?**
6. **Ayyorlikning oqibati yaxshi ekanmi?**
7. **Ertak qanday voqea bilan yakunlanadi?**
8. **Siz ertakning qanday yakun topishini xohlagan bo’lar edingiz?**
9. **Bo’g’irsoq ertagida qanday qo’shiq kuylanadi, kuylab bering.**
10. **Bo’g’irsoq nega hammadan qochib ketdi?**

ERTAK SYUJETI AKS ETGAN RASMLARNI TO’G’RI KETMA-KETLIKDA JOYLASHTIRING










ertaklar.uz


ertaklar.uz


ertaklar.uz


ertaklar.uz

ERTAK MATNINI TO’G’RI KETMA-KETLIKDA JOYLASHTIRING

Kampir unni qaymoqqa qoribdi, zuvala yasab bo’g’irsoq qilibdi va pechga joylabdi.

Bo’g’irsoq tulkining og’ziga sakrab tushibdi, tulki bo’lsa bo’g’irsoqni «xap» etib yeb qo’yibdi!

Bo’g’irsoq yo’lda dumalab ketayotib, bir quyonni uchratib qolibdi

Bo’g’irsoq qizarib, chiroyli bo’lib pishibdi. Kampir uni pechdan olib, sovitish uchun deraza oldiga qo’yibdi.

Bo’g’irsoq dumalashda davom etib, bir pasda bo’ridan uzoqlashib ketibdi.

Yo`lida ketayotsa oldidan ayiq chiqib qolibdi.

Bo’g’irsoq tulkining maqtovlariga uchib, dumalashdan to’xtabdi va qo’shiq ayta boshlabdi

U shunday kuylaganicha dumalab ketaveribdi. Ayiq bo’lsa, og’zini ochgancha anqayib qolibdi

Ijtimoiy jarayonda faol ishtirok etish orqali o‘quvchilarning mustaqilligi, ijodiy tashabbuskorligi ortib boradi. Faoliyat o‘quvchilar

jamoasi manfaati va istagi asosida uyushtirilsa, bu jarayonda bolaning tengdoshlari va o‘zini o‘zi anglash jarayoni yuzaga keladi. Bola o‘z xulqi, xatti-harakati uchun jamoa oldida javobgarlikni sezishga erishgach, ijrochi emas, balki umumiy ishning faol qatnashchisi bo‘lib qoladi. Tarbiyani samarali yo‘lga qo‘yish uchun uning harakatlantiruvchi kuchi, tarbiya jarayonining manbaini yaxshi bilish va hisobga olish muhimdir. Bu tarbiya jarayonidagi ichki va tashqi qarama-qarshiliklardan iborat. Tarbiyada o‘quvchilarning tarbiyalanganlik darajasini ham hisobga olish kerak bo‘ladi. Bu jihat unutilsa, muayyan qarama-qarshiliklar vujudga keladi. Faoliyat jarayonida hosil bo‘lgan malaka va odatlar axloq me’yorlariga rioya qilishni yengillashtiradi. Umumiy pedagogika jarayonida tarbiya muhim o‘rin tutadi. Shaxsni shakllantirish, boshqarish, nazorat xarakteriga ega bo‘lib, bu borada belgilangan vazifalar tasodifiy harakatlar orqali emas, balki oldinda belgilangan va puxta o‘ylangan rejalar asosida hal etib boriladi. Tarbiya jarayonida uning maqsadi, shakl va metodlari, shaxsning o‘zini-o‘zi tarbiyalash va qayta tarbiyalash jihatlari muhim o‘rin tutadi. Tarbiya mazmuni ijtimoiy tuzum buyurtmasi asosida belgilanib, uning amalga oshishi uchun ma’lum shart-sharoitlarning mavjudligi talab etiladi.

Xulosa qilib aytganda, har qanday ijtimoiy jamiyatda yosh avlod tarbiyasi muayyan maqsad asosida tashkil etiladi. Tarbiya maqsadi ijtimoiy jamiyat taraqqiyoti, uning rivojlanish yo‘nalishi, ijtimoiy munosabatlar mazmunidan kelib chiqib belgilanadi. Bugungi kunda O‘zbekiston Respublikasida tashkil etilayotgan tarbiyaning asosiy maqsadi komil shaxsni tarbiyalab voyaga yetkazishdan iborat. Bugungi kitoblar, ayniqsa badiiy asarlar xususida ayrim fikrlarni bayon etadigan

bo’lsak**,** kitob umuman, badiiy asar kishilarning dunyoqarashi, ijtimoiy-siyosiy salohiyatini ma'naviy barkamolligini ta'minlashi lozim. Bunday asarlar, darhaqiqat, yaratilmoqda, xalqimiz, ayniqsa, yoshlarimiz ularni o‘qishdan charchamayapti. Ammo, buguni asarlarning barchasiga ham birdek baho qo‘yish mumkin emas. Ayrim asarlar yaxshi niyatda yaratilayotgan bo‘lsada, ammo ular “teskari samara” bermoqda. Xalqimiz aynan tarbiya beradigan kitoblarni kutmoqda. Ayrim vatandoshlarimiz “hozirgi yoshlarga jiddiy badiiy asarlarni tavsiya etgan bilan, ular bunday kitoblarni o‘qimaydilar, chunki zamon o‘zgardi”, deyishmoqda. To‘g‘ri, zamon o‘zgardi. Ammo bizning o‘zbekligimiz o‘zgargani yo‘q. Shunday paytda, yoshlarimizning kitobxonlik madaniyatini oshirish, ular ma'naviy ehtiyojini shakillantirish uchun nimanidir tavsiya etishni ba'zan unutayotganga o‘xshaymiz. Yoshlar ma'naviy ehtiyojini shakillantirish uchun ularga ma'noli asarlar tavsiya etishimiz lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati

1. Mirziyoyev Sh.M. Kitob mahsulotlarini chop etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ`ibot qilish bo`yicha komissiya tuzish to`grisida. // Prezident Farmoni. “Xalq so`zi” gazetasi, 2017-yil 13-yanvar. – №9. – B. 1.

2. O‘zbek tili ta'limida pedagogik texnologiyalarning o‘rni. “O‘zbek tili” doimiy anjumani o‘n birinchi yig‘ini materiallari. - Toshkent. -B.288.

3. Abdullayeva Q, Rahmonbekova S. Diktantlar to‘plami (1-4-sinflar uchun). - Toshknet: “Turon-Iqbol”, 2006. -B.176.

4. Abdullayeva Q va boshqalar. O‘qish kitobi. 2-sinf uchun.- Toshkent: “O‘qituvchi”, 2006.-B.192.

5. Abdullayeva Q va boshqalar. 2-sinfda o‘qish darslari.-Toshkent: “O‘qituvchi”, 2004.-B. 214. 1996.B.- 96.

6. Abdullayeva Q. Alifbe: Darslik.- Toshkent: “O‘qituvchi”, 1987 y

7. Asqarova M va boshqalar. Kichik yoshdagi bolalar nutqini o‘stirish. - Toshkent: “O‘zbekiston”, 2001 y

8. Ashrapova T., Odilova M. Boshlang’ich sinflarda ona tili o'qitish metodikasi. Toshkent, “Sharq”, 1984 y

9. Ahmedova N. Boshlang’ich sinflarda nutq o'stirish usullari. (Ta'lim jarayonida nutq madaniyatini shakllantirish masalalari). Toshkent, “Sharq”, 1999 y